

O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

Nargiza Jahonova
Zarmad universiteti

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zaro bog‘liqligi va farqlari ilmiy manbaalarga tayangan holda tahlil qilingan. Faoliyat tushunchasining ta’rifi, faoliyat turlari va mazmuni haqida so’z yuritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatining mazmun-mohiyati yoritilgan, bir qator mashqlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: faoliyat, o‘quv faoliyati, bilish, bilish jarayoni, biluv faoliyati, kognitiv faoliyat, kognitiv jarayonlar

Specific features of organizing students’ learning activities

Nargiza Jahonova
Zarmad University

Abstract: The article analyzes the educational and cognitive activity of students, its similarities and differences, referring to scientific sources. Also, concepts, questions covering the essence of cognitive activity, the essence of cognitive processes, types and content of activity are considered.

Keywords: activities, educational activities, knowledge, knowledge, knowledge, cognitive activities, cognitive processes

Kirish. Bugungi kunda o‘quvchilarida yosh va individual xususiyatlari va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish asosiy ta’limiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki o‘quvchilar duch keladigan aksariyat qiyinchiliklar o‘quv materiallari doirasida namoyon bo‘ladi. O‘quv vaziyatida o‘quvchilar birinchi navbatda asosiy nuqtayi nazar sifatida o‘rganilgan hodisalarini tasvirlash ko‘nikmalarini tarkib toptirishi lozim. O‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, bilim olishga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Faoliyat tushunchasi arab tilidan olingan bo‘lib, “harakatchanlik”, “ta’sirchanlik”, “samaradorlik” degan ma’nolarni anglatadi. Pedagogik ensklopediyada biror sohada amalga oshiriladigan ish, mashg‘ulot, harakat; ish harakatni amalga oshirish jarayoni deb ta’riflangan.

Faoliyat kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli, inson borlig‘ining muhim xususiyatlaridan biri. Faoliyat asosida inson mohiyati namoyon bo‘lishi, jamiyatning mavjudligi ta’minlanadi [5, 264-bet].

Faoliyat - bu ijtimoiy qimmatli motivlarga ko‘ra maqsad sari yo‘nalgan, o‘ziga oid vositalar asosida ma’lum natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir.

Faoliyat nuqtayi nazaridan o‘qish, o‘rganish hodisalarini tadqiq qilishni, ularning o‘ziga xos qonuniyat, tamoyillarining qayd etilishi, faoliyatni o‘rganish genetik, struktural, dinamiklik jihatidan yondashish zarurligi g‘oyalarining qaror topishi natijasi o‘laroq fanda faoliyati nazariyasi shakllanadi va asoslanadi [8, 198-bet].

Ta’lim sharoitida bolalarning o‘quv-biluv faoliyati o‘ta murakkab, yaxlit tizim bo‘lib, tarkiban hissiyot va emotsiyalar, xotira, tafakkur, mantiqiy va lingvistik usul kabilardan tarkib topgan. Uning markazida bilish hodisalari, bilim yotadi. O‘quvchi bilishi umuminsoniy bilishning alohida shakli sifatida qaraladi. Uning o‘ziga xos hissiy va ratsional tomonlari mavjud. Bolalarning o‘quv-biluv faoliyatining boshlanishi, davomi va yakuniy nuqtalari bo‘lib, ma’lum bilim vositasida boshqariladi, o‘ziga xos vositalar yordamida amalga oshadi, ma’lum natija bilan yakunlanadi. Demak, o‘quv-biluv faoliyati anglangan, maqsadga yo‘nalgan, natija bilan yakunlanadigan faoliyatdir [7, 59-bet].

O‘quv faoliyati va biluv faoliyati - faoliyatning ikki vektori sifatida qarлади, ya’ni ular bir nuqtadan chiqqan, bir-birini to‘ldiradigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo etadigan, bir-birini inkor qilmaydigan hodisalardir. Agar o‘quv faoliyatining didaktik va psixologik zamini xotira hodisalari bo‘lsa, biluv faoliyatining didaktik va psixologik asosi tafakkur hodisalaridir. Ta’limning obyektiv borishida o‘quv faoliyati biluv faoliyatiga, biluv faoliyati esa o‘quv faoliyatiga o‘tib turadi.

Pedagogog olimlar O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizovlar o‘quv faoliyati va biluv faoliyatining quyidagi farqlarini ko‘rsatishgan:

FARQ	O‘QUV FAOLIYATI	BILUV FAOLIYATI
1-farq	O‘quv faoliyati bilim, ko‘nikma, malakaga yo‘nalgan.	Biluv faoliyati bilim, ko‘nikma, malaka bilan birga ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarini ham shakllantirishga yo‘nalgan.
2-farq	O‘quv faoliyatida o‘zlashtirish reproduktiv xarakterda bo‘ladi. Bola va o‘qituvchi aytgan topshiriqlarni ijro etadi, o‘qituvchi va o‘rtoqlarining faoliyatiga ergashadi, o‘zgalar faoliyatini takrorlaydi.	Biluv faoliyatida o‘zlashtirish produktiv xarakterda amalga oshadi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan hamkorlikda o‘z oldiga topshiriqlar qo‘yayadi, qo‘yilgan muammolarni mustaqil bajaradi.
3-farq	O‘quv faoliyatida bola ta’limning obyekti bo‘ladi.	Biluv faoliyatida bola ta’lim subyekti rollarida ishtirok etadi.
4-farq	O‘quv faoliyati bolalar mustaqilligi yuqori darajada bo‘lmaydi.	Biluv faoliyatida bolalar mustaqilligi eng yuqori darajada bo‘ladi.

Muhokamalar va natijalar. O‘quv faoliyati - o‘quvchilarning atrof-olamni bilish, bilim va tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv harakatini ifodalovchi tushuncha [5, 382-bet].

Shaxsda o‘quv faoliyati uzoq yillar mobaynida tarkib topadi. O‘quv faoliyati ilk bor mакtabgacha tarbiya yoshida, so‘ngra boshlang‘ich sinflarda shakllana boshlaydi, yuqori sinflarda esa rivojlanish davom etadi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda o‘quv faoliyati “o‘rganish” so‘zi bilan ma’nodosh qo‘llaniladi. Bola o‘rganishni boshlar ekan, o‘quv faoliyatini amalgalashiradi. Ammo bu o‘quv faoliyati bilan o‘rganish bir xil hodisa ekan degan xulosaga olib kelmaydi. O‘quv faoliyati, avvalo, ilmiy didaktik kategoriya bo‘lib, u subyekt-obyekt (o‘quvchi - o‘quv materiali) tizimida amal qiladi, o‘ziga oid motiv, maqsad, vosita, natijaga ega. O‘rganish esa, odatda, o‘zaro fikrlashuv jarayonida qo‘llanadigan so‘z. O‘rganish - ish nomi, o‘quv faoliyati esa faoliyat turlaridan biri. O‘rganish mehnat, o‘yin, o‘qish jarayonlarida ham amalgalashiradi. O‘quv faoliyati esa ta’limiy vazifalarni ongli hal qilishga yo‘nalangan. Kishining ongli xatti-harakati orqali qo‘yilgan vazifalarni ongli bajarishdir [8, 209-bet].

Bilish faoliyati jarayonida o‘quvchi taqdim etilgan bilimlarni o‘zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab yetadi. “Bilish” tushunchasiga pedagogika ensklopediyasida quyidagicha ta’rif berilgan: *bilish* - 1) ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga taqdim etilgan o‘quv materialnning o‘zlashtirilganlik darajasi; 2) borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash shakli. Bilish obyektiv borliqni inson ongida aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayonidir. Bilish bir nechta darajalarda namoyon bo‘ladi:

hissiy bilish - sezgilar, idrok, tasavvur orqali hosil qilinadi;

ratsional bilish - tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o‘tib nazariyalar tarzida namoyon bo‘ladi.

Bilishning kundalik, badiiy, ilmiy darajalari ham mavjud. Ilmiy bilish ham o‘z navbatida, tabiat va jamiyatni bilishdan iborat bo‘lib, ularidan har birining o‘ziga xos yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari mavjud. Bilish - insonning voqelikni o‘z ongida aks ettirish jarayoni [3, 139-bet].

Bilish jarayoni - insonning hayoti uchuy zarur bo‘lgan tabiat, jamiyat hamda o‘zi haqidagi bilimlarni uzluksiz egallashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. O‘z mazmuniga ko‘ra keng ko‘lamli, ko‘pqirrali atama. U inson uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallash va muntazam yangilash jarayonini anglatadi. Bilish, birinchi navbatda, aqliy faoliyat hisoblanadi. Uning natijasi moddiy olamdan xabardorlikni ifodalaydi. Bilish, turli xayollar, fantaziyalarning tug‘ilishiga ham asos bo‘ladi. Bunday xayollar ba’zi hollarda obyektiv reallikka to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin. Bilish insonning o‘ziga xos, beqiyos faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat uni o‘rab turgan muhitning ideal modelini yaratishga qaratilganligi bilan ham o‘ziga xosdir.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, bilish jarayonlari bilish faoliyati natijasida subyekt tomonidan yaratilgan ideal model bo'lib, u hech qachon o'z obyektiga o'xshamasligi bilan ajralib turadi. Bilish insonning turli-tuman ehtiyojlari mahsuli sifatida vujudga keladi. U inson bilan obyekt orasidagi o'rnatilishi mumkin bo'lgan munosabat hisoblanadi. Uning natijasi esa reallik haqidagi muayyan axborot sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologik-didaktik nuqtayi nazaridan azkur atama insonning o'ylash, eslash, ko'ra bilish layoqatini ifodalaydi. Bilish va bilim tushunchalari har doim bir-birinbi taqazo etadi. Chunkli bilim bilish jarayoinining maqsadi va natijasini ifodalaydi [3, 140-bet].

An'anaviy ta'lim sharoitida bilish faoliyati o'qituvchining o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o'tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o'quvchilarga tayyor tarzda uzatilmasligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo'ldilar. O'qituvchi o'quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo'lishiga erishish nazarda tutilmoqda.

Bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari loyihalashtirilganda umumlashgan bilish ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Chunki mazkur jarayonda maqsadga yo'naltirilgan maxsus o'quv vaziyatlari amalgalashadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni umumlashgan ko'nikmalarni egallahga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ularda xususiy xarakterdagi o'quv-biluv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishda o'quv vaziyatlari o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi. O'quv faoliyati shunday vositaki, uning yordamida o'quvchi o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga intiladi. O'quvchi faoliyati o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

Ma'lumki, o'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzlusiz tarzda davom etadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejorashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatishdir.

Pedagogikada "biluv faoliyati" va "kognitiv faoliyat" tushunchalari o'zaro ma'nodosh tushunchalar sifatida qaralari. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin, ammo mutlaqo bir xil emas.

Kognitiv - shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash jarayonini ifodalovchi atama [4, 180-bet].

Kognitiv ta'lism - atrof-muhit haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiallovchi tafakkurni shakllantirish, bilim ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi. Psixologik tadqiqotlar sohasidan hamda pedagogikaning yo'nalishlaridan biri. Kognitiv ta'limning asosiy maqsadi individning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. O'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta'limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o'qitish [4, 180-bet].

"Biluv faoliyati" va "kognitiv faoliyat" tushunchalarining har ikkalasi bilish jarayonlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, har ikkisi ham insonning atrof-muhit haqidagi bilimlarni qabul qilishi, ularni qayta ishlashi va foydalanishini ifodalaydi. Psixologiyada bu ikki atama ko'pincha bir-birining o'rnida ishlataladi.

Biluv faoliyati insonning bilim olishga qaratilgan faol harakati, ya'ni o'rganish, tahlil qilish, tushunishga urinishi hisoblanadi. Bu faoliyat maqsadli va ongli bo'ladi. Kognitiv faoliyat esa insonning bilish qobiliyatiga oid jarayonlari: idrok, e'tibor, xotira, tafakkur, til, muammo hal qilish kabi psixik funksiyalarni qamrab oladi.

"Biluv faoliyati" ko'proq *nima qilinayotganiga* urg'u bersa, "kognitiv faoliyat" *qanday qilib* (ya'ni qanday psixik jarayonlar orqali) bu ishlar amalga oshirilayotganini ifodalaydi. Ular yaqin ma'nodagi atamalar, ammo kognitiv faoliyat kengroq va ilmiyroq tushuncha hisoblanadi.

Kognitiv faoliyat - bilim olish va undan foydalanishga qaratilgan faol faoliyat. Kognitiv faoliyat doimo muammoga asoslanadi, shuning uchun uning maqsadi yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal qilish orqali aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyati ularga haligacha noma'lum bo'lgan hamma narsani tushunishga qaratilgan. Odamlarni o'rab turgan narsalarning aksariyati bolalikda tushunarsiz va sirli ko'rinadi. Bolaning tanasi o'z tabiatiga ko'ra faoliik va harakatga intiladi. Kognitiv faolligi yuqori bo'lgan bolalar kattalarning ularga hamma narsani batafsil tushuntirishlarini kutishmaydi. Ular o'zlarining kashfiyotlar qilishlari va dunyo haqidagi tushunchalarini kengaytirish uchun qadamlar qo'yadilar.

Kognitiv faoliyat ilmiy adabiyotlarda "tafakkurda vogelikni aks ettirish va takrorlash jarayoni; haqiqatni topish maqsadida boshdan kechirilgan yoki boshdan kechiriladigan narsalarning hissiy mazmunini o'zlashtirish; subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijada yangi bilimlarning paydo bo'lshi" deb ta'riflangan bo'lib, "idrok" tushunchasi mazmunini ochib beradi. Bilish insonning bilimlarni egallashi va o'zlashtirishini ta'minlovchi aqliy jarayonidir. Idrok sezish, idrok etish, diqqat, tasvirlash, xotira, fikrlash, tasavvur va nutq kabi psixik jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Bilish jarayonida aqliy faoliyatning oldindan ko'rish, tasavvur qilish, sezgi kabi shakllari ishtirok etadi, ular to'plangan bilimlarga asoslanadi va

atrofdagi voqelikdagi narsa va hodisalarining keyingi rivojlanishini oldindan ko‘ra olish imkonini beradi.

Pedagogika fanlari doktori, professor V.A.Slastenin fikricha “Kognitiv faoliyat - bu hissiy idrok, nazariy fikrlash va amaliy faoliyatning birligi. U hayotning har bir bosqichida, barcha turdagи faoliyat va ijtimoiy munosabatlarda ... (ishlab chiqarish hamda ijtimoiy foydali mehnat, qadriyatga yo‘naltirilgan va badiiy-estetik faoliyat, muloqot), shuningdek, turli xil predmetli-amaliy harakatlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi (ta’limda turli xil amaliy harakatlar, loyihalashtirish, tadqiqot va boshqalar) [9, 147-bet].

V.S.Muxina bolaning kognitiv faolligini “o‘zini o‘zgartirish” deb hisoblaydi. U quyidagilarni ta’kidlaydi: “Bola nafaqt bilimni, balki bu bilimlarni qanday egallashni ham o‘rganadi. Bola o‘zini o‘zi o‘zgartirishga yo‘naltiriladi - u o‘zini o‘rab turgan madaniyatga xos bo‘lgan xizmat qilishning zarur usullarini va aqliy harakatlarini o‘zlashtiradi. Mulohaza yuritib, u o‘zining sobiq o‘zini hozirgi o‘zi bilan taqqoslaydi. Shaxsiy o‘zgarishlar muvaffaqiyatlar darajasida kuzatiladi va namoyon bo‘ladi” [2, 327-328-betlar].

P.I.Pidkasistiy bilish faoliyatining protsessual jihatini shunday ochib beradi: “maktab o‘quvchilar nafaqt aniq bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar, balki o‘zlashtirilayotgan mazmunga nisbatan faoliyatning o‘ziga xos usullarini ham o‘zlashtiradilar”. Shu bilan birga, olim kognitiv faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini jarayon sifatida belgilaydi: o‘quvchi tomonidan umumiy va xususiy kognitiv vazifani aniqlash (o‘quv vaziyati tuzilishida maqsadni tanlash, vazifani ko‘rish qobiliyati); muammoni hal qilishga olib keladigan adekvat harakat usullarini tanlash, belgilash va qo‘llash (uni hal qilish usullari va vositalarini tanlash qobiliyati); qo‘yilgan vazifaning topilgan va qo‘llaniladigan usullar bilan hal etilayotganligini nazorat qilish (nazorat qilish) operatsiyasini bajarish (o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni muammoni hal qilishni amaliy amalga oshirish jarayonida qo‘llash qobiliyati) [6, 261-bet].

I.A.Zimnyaya fikricha, o‘quvchilarning bilish faoliyatining ahamiyati shundaki, u chuqur tizimli bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu faoliyat vositasi bo‘lib, keyinchalik turli xil hayotiy vaziyatlarda qo‘llaniladi [11].

E.O.Emelyanova “Bilim to‘plangan sari o‘quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi kengayadi, ularning bilim faoliyatini malakali, ya’ni tizimli, maqsadli va samarali amalga oshirish qobiliyati ortadi; ...o‘quvchilar kognitiv faoliyat predmetining mazmunini o‘zlashtirgani sari uning natijalari yaxshilanadi” [1, 70-bet].

Demak, kognitiv faoliyat yordamida o‘quvchilar o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq ta’lim jarayonida amaliy harakatlarini tartibga soladilar. Bu fikrlash jarayonlari ongli va maqsadli xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va harakat usullarini o‘zlashtirishga bo‘lgan faol munosabatini ifodalaydi.

Boshqacha qilib aytganda, kognitiv faoliyatni ta'lim muammosini hal qilishda o'zini namoyon qiladigan va ma'lum bir ketma-ketlikda sodir bo'ladigan fikrlash jarayoni deb hisoblash mumkin.

Kognitiv faoliyat natijalari har doim ham o'quvchilar uchun sezilmasligi mumkin. Bu kognitiv faoliyatning o'ziga xosligi. Kognitiv faoliyat natijalarining "nomoddiyligi"ning bu xususiyati o'quvchilarni ta'lim bilish jarayoniga jalb qiluvchi o'qituvchiga alohida mas'uliyat yuklaydi.

O'quvchining kognitiv faoliyati - bu ta'limiy bilish, uning mexanizmi, bиринчи navbatda, tafakkur. O'quv-bilish jarayonining o'zi tahlil, sintez, abstraktsiya, konkretlashtirish va umumlashtirish kabi operatsiyalar yordamida amalga oshiriladi. Tushunchalar, mulohazalar va xulosalar o'quvchilarning ta'limiy bilishida fikrlashning asosiy shakllarini tashkil etadi. Haqiqiy ta'lim muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan maxsus harakatlar va operatsiyalarni tanlash kognitiv faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quvchilarning bilish faoliyati motivlar, maqsadlar, o'quv vazifalari, o'quv faoliyati, nazorat va baholash kabi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.

Kognitiv faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi bu motivlar, ya'ni o'quvchilar o'quv mashg'ulotlariga jalb qilish va ma'lum kognitiv harakatlarni amalga oshirishda foydalanadigan motivatsiyalardir. Kognitiv faoliyat mavzusi bilan bog'liq bo'lgan turli xil motivlar orasida bilishga oid qiziqishlar va ehtiyojlar eng muhimi. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- fanning mazmuniga bevosita qiziqish; subyekt talab qiladigan aqliy faoliyatning tabiatiga qiziqish;
- omadga asoslangan qiziqish, fanni o'rganishdagi muvaffaqiyat yoki uni o'rganishga moyillik;
- subyektning kelajakdagagi faoliyati bilan bog'lanishi natijasida yuzaga keladigan bilvosita qiziqish;
- o'qituvchi shaxsining ijobiy ta'siriga asoslangan qiziqish.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tartibga solish belgilangan maqsadlar asosida amalga oshiriladi. Kognitiv faoliyatning maqsadlari o'quvchilarning bilimlarida, o'zlashtirilgan faoliyat usullarida, o'qitish usullarida, ta'lim bilimlari tajribasida va boshqalarda aks etadigan bilim obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni olish va sharhlash deb qaralishi kerak [10].

Ta'lim muammolarini hal qilish ham o'quvchilarning bilim faoliyatining ajralmas qismidir. O'quv vazifasining muhim xususiyati - bu o'quvchilarning ma'lum bir sinf o'quv vazifalarini hal qilishning umumlashtirilgan usullarini o'zlashtirishi, ularni hal qilish o'zlashtirilgan harakatlar va operatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Shunday qilib, kognitiv faoliyat - bu o'quv jarayonining tuzilishi va faoliyatning umumiyligi tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan yaxlit jarayon. Kognitiv faoliyat

bilimning yetakchi shakli sifatida o‘quvchilarining hissiy idroki, nazariy tafakkuri va amaliy harakatlarining birligini ifodalaydi. Kognitiv faoliyatning muvaffaqiyati o‘quvchilarining shaxsiy xususiyatlari va mos keladigan qobiliyatları bilan ta’minlanadi. Kognitiv faoliyatni o‘quvchilarining fan mazmunini o‘zlashtirishga, bilishning umumiy va xususiy usullarini o‘zlashtirishga hamda o‘quvchilarining aqliy va axloqiy rivojlanishini ta’minlashga, ularni bilish jarayonining faol subyektlari sifatida shakllantirishga qaratilgan motivlangan faoliyati sifatida belgilanadi.

Kognitiv faoliyat mifik tab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Uni amalga oshirishning muvaffaqiyati o‘quvchilarining shaxsiy xususiyatlari va tegishli ko‘nikmalari bilan ta’minlanadi. Shuning uchun mifik tab ta’limining barcha bosqichlarida kognitiv faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini, shuningdek, ularning shaxsiy rivojlanishining qonuniyatları va dinamikasini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Емельянова Е.О. Познавательная деятельность учащихся в процессе обучения химии: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.02. - Липецк, 2005. - 362 с.
2. Мухина В.С. Возрастная психология. Феноменология развития: учеб. для студ. вузов. - М.: "Академия", 2009. - 637 с.
3. Pedagogika ensklopediya. I jild. - Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensklopediyasi", 2015. -320 bet. 139-142-bet.
4. Pedagogika ensklopediya. II jild. - Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensklopediyasi", 2015. -376 bet. 180-bet.
5. Pedagogika ensklopediya. III jild. - Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensklopediyasi", 2017. -424 bet. 264-bet.]
6. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование. - М.: "Педагогика", 1980. - 240 с.
7. Roziqov O., Mahmudov M. Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005. - 388 bet.
8. Roziqov O.R., Mahmudov M.H., Adizov B.R. Umumiyy didaktika. -Toshkent, 2009. -434 bet.
9. Сластенин В.А. Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учеб. Пособие. - М.: "Академия", 2002. - 576 с.
10. Хаджиев С.М. Познавательная деятельность и специфика ее осуществления учащимися старших классов // Психолого-педагогическое сопровождение ФГОС Научно-теоретический журнал. Выпуск 3(8) • 2011 Новой Школе - Новые Стандарты.

11. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. - М.: "Логос", 2000. - 384 с.
12. Raxmanova, M. Q., & Umrzoqov, S. G. (2021). O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI KENGAYISHIDA TA'LIM JARAYONLARINING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(4), 504-513.
13. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnalı, 1(1), 158-160.
14. Pazilova Meruert Ermekbaevna. (2022). AJDODLARIMIZ MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 5. 120-124
15. Teshaboyev Alixo'ja Ibragimovich. (2023). YOSHLARNING BILISH HARAKATLARINI FAOLLASHTIRISHDA AJDODLARIMIZ TOMONIDAN YARATILGAN PEDAGOGIK MEROSDAN SAMARALI FOYDALANISH. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19. 1055-1060